

JADID ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI: BADIY-ESTETIK TALQIN
(CHO'LPON IJODI MISOLIDA)

Roziqova Hosila Fayzullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

Norkulova Shaxnoza Tulkinovna

TISU dotsenti (PhD)

Termez (Uzbekistan).

shaxnoza_norkulova@tues.uz

ORCID: 0009-0008-7546-7613

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20625621>

Annotatsiya. Maqolada XX asr o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodidagi ayol obrazi badiiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Adibning publitsistik, lirik va dramatik asarlarida ayol timsoli orqali ifodalangan ijtimoiy-ma'naviy g'oyalar, jadidchilik harakati kontekstidagi o'rni hamda milliy uyg'onish jarayoni bilan bog'liqligi yoritib beriladi. Tadqiqot davomida Cho'lponning ayol haq-huquqlari, ta'lim olish imkoniyatlari va jamiyatdagi mavqei masalalariga doir qarashlari uning konkret asarlari ekspertizasi asosida ochib berilgan. Birlamchi manbalar tahlili Cho'lpon ijodining gender muammolarini badiiy idrok etishdagi o'ziga xos uslubini, hamda mazkur g'oyalarning bugungi adabiyotshunoslik fani uchun qadrli ekanligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Abdulhamid Cho'lpon, jadid adabiyoti, ayol obrazi, badiiy-estetik talqin, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, gender muammosi, publitsistika, Uvaysiy, ta'lim islohoti.

Аннотация. В статье рассматривается художественно-эстетическая интерпретация образа женщины в творчестве одного из ярких представителей узбекской просветительской литературы XX века — Абдулхамиды Сулаймон угли Чулпона.

Освещаются социально-духовные идеи, выраженные через призму женского образа в публицистических, лирических и драматических произведениях писателя, их роль в контексте джадидского движения, а также их связь с процессом национального возрождения. В ходе исследования на основе экспертизы конкретных произведений Чулпона раскрываются его взгляды на права женщин, возможности получения ими образования и их статус в обществе. Анализ первоисточников обосновывает своеобразный стиль художественного восприятия гендерных проблем в творчестве Чулпона, а также ценность данных идей для современного литературоведения.

Ключевые слова: Ключевые слова: Абдулхамид Чулпон, джадидская литература, женский образ, художественно-эстетическая интерпретация, национальное возрождение, просветительство, гендерная проблема, публицистика, Увайси, реформа образования.

Abstract. This article offers an artistic-aesthetic analysis of the female character within the oeuvre of Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, a prominent figure in 20th-century Uzbek Enlightenment literature. It explores the socio-spiritual ideas conveyed through female imagery in the author's publicistic, lyrical, and dramatic works, underscoring their role in the context of the Jadid movement and their connection to the national awakening process. Throughout the study, Cho'lpon's perspectives on women's rights, educational opportunities, and social status are elucidated through the examination of specific literary works.

The analysis of primary sources substantiates Cho'lpon's distinctive stylistic approach to the artistic perception of gender issues, demonstrating the enduring value of these ideas for contemporary literary studies.

Keywords: *Abdulhamid Cho'lpon, Jadid literature, female character, artistic-aesthetic interpretation, national awakening, Enlightenment, gender issues, publicistic writing, Uvaysiy, educational reform.*

Kirish

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'zining boy ma'naviy merosini, jumladan, XX asr boshlarida shakllangan jadid adabiyoti durdonalarini holisona o'rganish va tahlil qilish imkoniga ega bo'ldi. Mazkur adabiyotning eng katta xizmati — milliy o'zlikni anglash, taraqqiyot va ma'rifatga chorlash, qotib qolgan eski tartiblarga qarshi isyon ko'tarish edi. Jadid adiblari ijodining markazida turgan masalalardan biri, shubhasiz, jamiyatda ayolning o'rni va uning ijtimoiy mavqei muammosi hisoblanadi.

Bu masalaga bag'ishlangan asarlar yaratgan ijodkorlar safida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning (1897–1938) o'rni alohida. Adibning publitsistikasi, lirikasi va dramaturgiyasi orqali kechgan ayol obrazi nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ham chuqur tahlilga muhtoj. Bugungi sharoitda gender masalasiga, ayolning jamiyatdagi rolini qayta ko'rib chiqishga e'tibor kuchaygan vaqtda, jadid adiblarining bu boradagi bir asr oldingi qarashlari ilmiy jihatdan dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u Cho'lpon ijodidagi ayol obrazini yaxlit badiiy-estetik tizim sifatida tahlil etishga, mazkur obrazning jadidchilik mafkurasi va milliy uyg'onish jarayoni bilan bog'liqligini ochib berishga qaratilgan.

Maqolaning asosiy maqsadi — Cho'lponning publitsistik va badiiy asarlarida tasvirlangan ayol obrazining badiiy-estetik xususiyatlarini, muallifning gender masalasiga doir qarashlarini va bu qarashlarning milliy ma'rifat tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Cho'lpon ijodini tadqiq etish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Adabiyotshunos olimlar N.Karimov, B.Qosimov, U.Sultonov, O.O'roqova, B.Karimov, S.Mirzayev, H.Boltaboyev kabi tadqiqotchilarning asarlarida adibning hayoti, ijodiy yo'li, badiiy mahorati va estetik qarashlari turli rakurslarda yoritilgan. U.Sultonov o'zining "Cho'lponning adabiy-estetik qarashlari" nomli tadqiqotida adib publitsistikasidagi ma'rifatparvarlik g'oyalarining badiiy ifodasini tahlil qilgan. O.O'roqova esa Cho'lpon ijodining konseptual-estetik asoslarini o'rgangan.

Shuning bilan birga, jadid adabiyotidagi ayol obraziga bag'ishlangan maxsus monografik tadqiqotlar ham mavjud. Lekin Cho'lpon ijodida ayol timsolining badiiy-estetik talqinini yaxlit holda tahlil qiluvchi, uning publitsistikasi, lirikasi va dramaturgiyasini bir butunlikda ko'rib chiqadigan tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqolada aynan shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tarixiy-qiyosiy metod — Cho'lpon ijodini jadid adabiyotining umumiy fonida o'rganish uchun; biografik metod — adib hayoti va ijodiy taqdirini bog'liq holda tahlil qilish maqsadida; kontent-tahlil — birlamchi

manbalardagi g'oya va obrazlarni aniqlashda; germenevtik metod – badiiy matnlarni talqin qilishda. Birlamchi manbalar sifatida Cho'lponning to'rt jildlik asarlar to'plami, "Yana oldim sozimni", "Vayronalar orasida" nashrlari, shuningdek, "Yorqin turmush", "Zarafshon", "Qizil bayroq" kabi davriy nashrlarda chop etilgan publitsistik maqolalari xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

XX asr boshlarida Turkiston falsafiy-estetik tafakkurining shakllanishida jadidchilik harakati yetakchi rol o'ynadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va Abdulhamid Cho'lpon kabi yirik mutafakkirlarning faoliyati tufayli ma'rifatchilik g'oyalari Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim ijtimoiy hodisaga aylandi. Jadid ma'rifatchilari o'z dasturida bir qator tub muammolarni ko'ndalang qo'yidilar: millat va vatan taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan diniy aqidaparastlik va eskirgan urf-odatlar, eski usul maktablarini yangi pedagogik tamoyillar asosida isloh qilish, xalq savodxonligini oshirish, ona tilini boyitish va adabiy tilning yangi shakllarini ishlab chiqish, milliy teatr va matbuot tizimini yaratish, ayollarning oilaviy va ijtimoiy hayotidagi mavqeini tubdan yangilash kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Cho'lpon obrazi o'zbek badiiy tafakkurida o'ziga xos ramziy ahamiyat kasb etadi. Uning nomini eslaganimizda, qoroyu kechalardan so'ng tong otishini bashorat qilib, qora osmonni yorqin nuri bilan munavvar qiluvchi tong yulduzi obrazi xayolimizda jonlanadi. Bu tasodif emas, balki adib taxallusining mazmuniy mohiyatidan kelib chiqadigan badiiy haqiqatdir. Cho'lpon yoshlik chog'idanoq, ya'ni 16–17 yoshlardayoq teran bilim, mustaqil fikr egasi sifatida shakllandi. Uning adabiy faoliyati 1913–1914-yillarda Andijonning ijtimoiy va madaniy ahvoriga doir publitsistik xabarlar bilan boshlangan.

Mustamlaka davrida Turkiston aholisining iqtisodiy-ma'naviy qoloqligini chuqur idrok etgan Cho'lpon, boshqa ma'rifatparvar adiblar singari, o'z asarlari orqali xalqning ongini uyg'otish, ma'rifiy saviyasini ko'tarish vazifasini zimmasiga oldi. Adibning ijodiy merosi keng qamrovli bo'lib, she'riyat, nasr, drama, publitsistika, adabiy-tanqidiy maqolalar va tarjimalardan iborat. Nasriy ijodida publitsistika alohida o'rin tutadi: "Yo'l esdaligi", "Vayronalar orasidan", "Sharq uyg'ongan", "Yo'lda bir kunduz", "Yo'lda bir kecha", "Chimkent", "Quturgan mustamlakachilar" kabi ocherk va maqolalarida 1920-yillar mustamlaka o'lkaning og'ir manzaralari realistik tasvir san'ati orqali yoritilgan.

Adib dunyoqarashining markaziy negizini insonparvarlik, millatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari tashkil etadi. Uning publitsistik asarlarida ushbu g'oyalar ayniqsa ayol va yosh avlod taqdiriga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Aynan shu yo'nalishda "Vayronalar orasidan" nomli maqolasi diqqatga sazovordir. Ushbu asarda Cho'lpon Turkiston qishloqlaridagi maktablar ahvolini qattiq tanqid qiladi:

"Bitta maktab ham bor dedilar, lekin uning o'zidan ko'ra ko'proq "oti" bor, shekillik... Ko'klamdan tortib to kuzgacha maktab tatil ekan, dehqonlar bolalarini faqat qishdagina o'qita olurlar ekan" [1, 156-b.].

Mualif maktablarning moddiy-texnik bazasi yo'qligi, mualimlarni ta'minlash uchun hatto byudjet mablag'i topilmasligini achchiq kinoya bilan tasvirlaydi. Bu satrlar mustamlakachilik siyosatining mahalliy aholini ta'limdan, demak, taraqqiyotdan uzoqlashtirishga qaratilgan ekanligini ifodalaydi. Bunday vaziyatda ayollar ta'limining ahvoli butunlay og'ir edi va aynan shu masala adib qalbini eng ko'p larzaga keltirar edi.

Cho'lponning o'zbek ayoli taqdiriga bo'lgan munosabati "Vayronalar orasidan" maqolasidagi quyidagi ehtirosli satrlarda yorqin namoyon bo'ladi:

"Bechora o'zbek xotuni! Senga 12 yoshingda kafan kiygizgan janoblar tug'ilgan kuningdayoq seni irimlarning bema'ni quchoqlariga irg'itadurlar! Bilmaysen. Bilmaysen. Bilmaganing uchun sen hali ko'p yillar shu irimlar uchun eng toza umidlaringni so'ldirgaysen!" [1, 162-b.].

Ushbu satrlarda muallifning faqat tashqi sharoitlarni emas, balki ayolning o'zining ham bilim va ongidan mahrum qoldirilganini, irimchilik va xurofot tufayli sof umidlari va orzulari so'nayotganini g'am-alam bilan qayd etayotgani sezilib turadi. Bu yerda Cho'lpon ayoldagi ichki potensialni, uning ma'nan o'sish istagini ko'ra olgan estet sifatida gavdalanadi.

Adibning ayollar iqtidoriga ishonchini tasdiqlovchi yorqin misollardan biri — 1936-yilda "Yorqin turmush" jurnalining 4–5-qo'shma sonida e'lon qilingan "Uvaysiy" maqolasidir. Bu asarda Cho'lpon Marg'ilonlik Jahonotin Uvaysiyning shoirlilik iste'dodi va jasoratli xatti-harakatini misol tariqasida keltiradi. Maqola syujetiga ko'ra, Uvaysiy Qo'qondagi xon saroyi shoirlari bazmida ishtirok etish istagida bu yerga keladi, lekin saroyga kiritishmaganidan so'ng qari kampir qiyofasiga kirib, quyidagi badihiy bayitni yozib jo'natadi:

"Meni "Latazg'lu" deb mahrum etma, bog'bon hargiz, / Azal degani bag'rim qonini to'kkan bu gulzora" [2, 87-b.].

Cho'lpon Uvaysiyning tezkor she'r yozish (badihago'ylik) qobiliyatini ta'kidlashda uning mashhur "Anor" chistonini ham keltiradi. Saroy mehmonlari dasturxonidagi anorni ko'rsatib, shoiraga shu meva haqida darhol she'r yozish iltimos qilinganida, Uvaysiy o'sha lahzaning o'zida quyidagi to'rtlikni yaratdi:

"Bul na gumbazdir, eshigi, tuynugidan yo'q nishon, / Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdir makon. / Sindirib gumbazni qizlar holidan olsam xabar: / Yuzlariga parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon" [2, 89-b.].

Adibning ushbu chistonga bergan sharhi diqqatga sazovor: u shoira nafaqat anor mevasini badiiy tasvirlagan, balki yuzlariga parda tortilgan saroy cho'ri qizlarining ohi-zorini ham tasvirlay olgan, deb yozadi. Bu yerda Cho'lponning ayolda nafaqat estetik, balki ijtimoiy-falsafiy idrok kuchini ko'ra olishi diqqat markazida. Muallif Uvaysiy timsolida o'zbek ayolining ijodiy salohiyatini, jasoratli ruhini va o'z davri ijtimoiy adolatsizliklarini chuqur his eta olish qobiliyatini namoyish etadi.

Cho'lponning "Istiqbol uchun kurash" maqolasida o'zbek qizining ham bilim olishga, dunyoni kezib ilm izlashga huquqi borligi qat'iy ohangda ifoda etiladi:

"O'zbek qizi hanuz yangi usul maktablarga hali yolchib kira olgani yo'q. Hatto, o'zbek qizining o'zida pardasi, xohishi-da kishani bo'lmagan erkak bolalari ham yuqori maktablarning muhtasham sahnalarida ko'plashib yura olgani yo'q. Hali o'zbek qizi ota-onaning tilsiz qo'g'irchoq'i bo'lishdan qutula olgani yo'q" [3, 45-b.].

Ushbu satrlarda "tilsiz qo'g'irchoq" metaforasi alohida e'tiborni tortadi. Cho'lpon ushbu obrazli ifoda orqali ayolning patriarxal jamiyatdagi obyektisizlashtirilgan holatini, o'z fikri va xohish-irodasidan mahrum bo'lganligini estetik darajada umumlashtirib beradi. Bu metafora jadid adabiyotidagi ayol obrazining badiiy ifodasi nuqtai nazaridan klassik ahamiyatga ega.

Adibning yana bir muhim publitsistik asari — "Eng muhim vazifamiz" maqolasidir.

Maqolaning sarlavhasidayoq Cho'lpon ayollar masalasini jamiyat oldidagi eng muhim vazifa darajasiga ko'taradi. Asarda "Zarafshon" gazetasidagi Ismoilzodaning "Unutilgan bir vazifa" maqolasiga javob tariqasida fikr yuritiladi:

"Bizda maktab, o'qish-o'qitish va bilimlik bo'lish masalasi juda jiddiy harakatlar bilan yo'lga qo'yila boshlagan choqda shu bilimdan xalqning erkak-xotunini bab-barobar foydalanirish, haqiqatan, muhim va muhimligi unutilgan bir masaladir" [3, 78-b.].

Bu o'rinda Cho'lpon Ismoilzoda "unutilgan vazifa" deb atagan masalani "eng muhim vazifa" darajasiga olib chiqib, ayollar ma'rifati masalasining strategik ahamiyatini ta'kidlamochi bo'ladi.

Asarning davomida muallif ta'lim sohasidagi islohotlar faqatgina erkaklarni qamrab olganini, ayollarning ehtiyojlari e'tibordan chetda qolayotganini achchiq tarzda qoralaydi:

"Bu qilingan harakat va faoliyat faqatgina ijtimoiyatimizning bir sinfi bo'lgan erlar sinfi uchungina maxsus bo'lib qoldi. Ijtimoiyatning eng nozik bir yeri va balki asos bo'lgan xotini-qizlarning ahvoli hech bir e'tiborga olinmadi" [3, 81-b.].

Cho'lpon hatto Samarqand singari yirik viloyat markazida ham bironta muntazam faoliyat ko'rsatuvchi qizlar maktabi yo'qligidan iztirob chekadi. Bir paytlar mashhur bo'lgan "Bibixonim" maktabining tanazzulga yuz tutgani — 1920-yilda 50 dan ortiq qiz tahsil olgan ushbu o'quv yurtida hozirda atigi 7–8 nafar o'quvchi qolgani — muallifni o'ylantirgan. Maqola yakunida adib o'zining qat'iy pozitsiyasini bayon qiladi: bu masalada faqat tushunish va his qilish kifoya emas, balki konkret amaliy chora-tadbirlar ko'rish zarur.

Cho'lpon ayollar ta'limining jamiyat taraqqiyotidagi rolini chuqur tushungan ijodkor edi.

U ayollar bilim olishi va ma'rifatli bo'lishi nafaqat shaxsiy huquq, balki millat kelajagi uchun strategik vazifa ekanligini anglardi. Adibning fikricha, ayolning oilada va farzand tarbiyasida tutgan o'rni o'zga narsalar bilan o'lchanmaydigan darajada muhim. Ma'rifatli, zukko ona o'z farzandiga to'g'ri tarbiya bera oladi, uni ilm-fanga qiziqтира biladi. Aynan shuning uchun Cho'lpon ushbu mavzuni umrining oxiriga qadar publitsistikada, lirikada, dramaturgiyada qayta-qayta qalamga oldi. Muallif uchun bu mavzu janr chegaralarini bilmasdi — har qanday badiiy shaklda ham ayol haqidagi g'oyalar markaziy o'rin tutardi.

Cho'lpon ijodidagi ayol obrazining badiiy-estetik xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin. Birinchidan, adib uchun ayol obrazi ramzli mazmun kasb etadi: u nafaqat konkret shaxs, balki butun millatning ma'naviy holatining ramzi sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchidan, Cho'lpon ayol obrazini ikki qutbga ajratmaydi — u na qurboni, na qahramonidir; aksincha, ayol birvarakayiga ham jabrkash, ham potensial qudrat sohibi sifatida tasvirlanadi. Uchinchidan, muallif ayol obrazi orqali jamiyatning estetik ideali emas, balki etik ideali shakllantiradi: bilimli, ozod, hur fikrli ayol millat kelajagining poydevoridir.

Cho'lponning gender muammosiga yondashuvi o'sha davr g'arbona feminizmidan ham, an'anaviy patriarxal qarashlardan ham farq qiladi. Adib ayolni o'z tabiiy mohiyatidan ayirmagan holda, uning ijtimoiy huquqlarini, bilim olish va kasb tanlash erkinligini himoya qiladi. Bu yondashuv jadidchilik harakati uchun umumiy bo'lgan o'rta yo'l falsafasini aks ettiradi: an'anani inkor etmaslik, lekin uni yangi davr talablariga moslashtirib, taraqqiyotga yo'l ochish.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, Abdulhamid Cho'lpon ijodida ayol obrazi shunchaki badiiy timsol bo'lib qolmasdan, butun bir milliy-ma'rifiy konsepsiyaning ramziy markaziga aylangan. Adibning publitsistik, lirik va dramatik asarlarida ayol haqidagi g'oyalar yaxlit estetik tizimni shakllantiradi.

Ikkinchidan, Cho'lponning gender muammosiga doir qarashlari jadidchilik harakatining umumiy mafkurasi bilan organik bog'liq bo'lib, milliy uyg'onish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, adib ijodida ayol ta'limi masalasi nafaqat ijtimoiy huquqlar, balki millat taqdiri va kelajagi nuqtai nazaridan ko'rilgan.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar shakllantirildi: a) Cho'lpon ijodidagi ayol obrazini boshqa jadid adiblari (Behbudiy, Fitrat, Avloniy) ijodi bilan qiyosiy o'rganish bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borish; b) adibning publitsistik asarlarida ko'tarilgan gender masalalarining bugungi ijtimoiy-pedagogik kontekstdagi dolzarbligini chuqur tahlil qilish; d) Cho'lponning ayol haqidagi qarashlarini zamonaviy adabiyotshunoslik fanidagi gender tadqiqotlar metodologiyasi asosida yangidan o'rganish; e) maktab va oliy ta'lim adabiyot dasturlarida adibning bu yo'nalishdagi asarlariga alohida e'tibor qaratish.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, u jadid adabiyotidagi ayol obrazi muammosini Cho'lpon ijodi misolida konkret tahlil qilish orqali milliy ma'naviy merosimizning bugungi avlodlar uchun qadrli ekanligini ko'rsatadi. Adibning bir asr oldin aytgan g'oyalari hozir ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam metodologik asos vazifasini bajarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon A. Asarlar: 4 jildlik. – Toshkent: Akademyanashr, 2016. – 1-jild. – 480 b.
2. Cho'lpon A. Yana oldim sozimni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 360 b.
3. Cho'lpon A. Vayronalar orasida: Publitsistik asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 304 b.
4. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi: manbalar, tadqiqotlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 432 b.
5. Karimov B. Cho'lpon: yangicha talqin. – Toshkent: Sharq, 2015. – 256 b.
6. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 552 b.
7. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 416 b.
8. Mahmudova G. Jadidchilik va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2011. – 216 b.
9. Norkulova Sh. Hozirgi o'zbek nasrida ayol obrazi. – "New renaissance" xalqaro ilmiy jurnali. 2026/04/09. <https://ojs.renaissance.com.uz>.
10. Norkulova Sh. Zamonaviy nasrda ayol ruhiyati va uning badiiy ifodasi. – "Modern Science and Research" xalqaro ilmiy jurnali. 2026/04/09.
11. Norkulova Sh. O'zbek adabiyotida ayol obrazi talqinlari. – "New renaissance" xalqaro ilmiy jurnali. 2025/09/21
12. O'roqova O. Cho'lpon badiiy ijodining konseptual-estetik asoslari: Filol. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 56 b.
13. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.

14. Sultonov U. Cho‘lponning adabiy-estetik qarashlari: Filol. fan. nom. diss. – Toshkent, 1995. – 168 b.
15. Furqat Z. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1981. – 296 b.
16. Hayitmetov A. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotining muhim bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2004. – 248 b.
17. Sharafiddinov O. Cho‘lpon. – Toshkent: Yozuvchi, 1991. – 240 b.
18. Jadidchilik: islohot, yangilanish va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Universitet, 1999. – 256 b.